

MA'LUMOTNOMA

anonim so'rovnoma natijalari bo'yicha

“O‘zbekgeofizika” AJ “Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorati” bo‘limi tomonidan ISO 37001:2016 halqaro standarti talablari hamda 2026 yilda “O‘zbekgeofizika” AJda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar Dasturiga muvofiq Jamiyat va uning tarkibiy bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashi yo‘nalishida olib borilgan ishlar natijasi bo‘yicha xodimlar o‘rtasida elektron tarzda (telegram kanal orqali) anonim so‘rovnoma o‘tkazildi.

So‘rovnomada, quyidagi yo‘nalishlar va savollar orqali Jamiyat xodimlarining fikrlari o‘rganildi, xususan:

- O‘zbekgeofizika” AJning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatini 5 ballik tizimda qanday baholaysiz;

- “O‘zbekgeofizika” AJda korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida aynan qaysi tuzilmalarda islohotlar olib borish lozim deb hisoblaysiz (asosiy ishlab chiqarishbo‘limlarida, xaridlar va ta‘minot bo‘limida, xodimlar bilan ishlash bo‘limida, avtotransport vositalarini ekspluatatsiya va ularni nazorat qilish bo‘linmalarida, YoMM mahsulotlari va ehtiyot qismlarni sarfi yo‘nalishida);

- “O‘zbekgeofizika” AJda xaridlarni amalga oshirish jarayonining 5 ballik tizimda qanday baholaysiz;

- “O‘zbekgeofizika” AJda - YoMM mahsulotlari va ehtiyot qismlarni ishlatilish jarayonining 5 ballik tizimda qanday baholaysiz;

- “O‘zbekgeofizika” AJda davlat va shartnomaviy loyihalar doirasida geofizik ishlarni amalga oshirilish jarayonlarini 5 ballik tizimda qanday baholaysiz;

- “O‘zbekgeofizika” AJ va uning filiallarida fuqarolarni ishga qabul qilish, xodimlarni lavozimdan lavozimga o‘tkazish jarayonlarini shaffofligini 5 ballik tizimda qanday baholaysiz;

- “O‘zbekgeofizika” AJning jismoniy va yuridik shaxslar bilan hamkorligini va murojaatlarga berilayotgan javoblarni 5 ballik tizimda qanday baholaysiz;

- “O‘zbekgeofizika” AJ va uning filiallari rahbar xodimlari tomonidan asossiz talablar qo‘yish, paysalga solish yoki turli bahonalar bilan sarson qilish holatlariga duch kelyapsizmi;

- “O‘zbekgeofizika” AJda qo‘shimcha to‘lov va turli rag‘batlantirish yoki moddiy yordam berilishi shaffof tizim orqali amalga oshirilmoqdam;

- Sizningcha, Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar natija beryaptimi;

- Sizningcha, qanday chora-tadbirlar “O‘zbekgeofizika” AJda korrupsion holatlar kamayishiga olib keladi.

So‘rovnoma natijalari va olingan ma‘lumotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, ishtirokchilarning 47% Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi yetarli darajada ishlayotganligi, kerakli islohotlarni xaridlar yo‘nalishida (34,4%), xodimlar bilan ishlash bo‘yicha (31,3%) hamda 25% YoMM sarfi bo‘yicha olib

borilishi kerakligi, davlat shartnomlari doirasida ishlarning qoniqarliligi 85,3%, tarkibiy bo'linmalarda 45,7% xodimlar kadrlar bilan ishlashda nuqsonlar mavjudligi, murojaatlar bilan ishlashda 35,3 % olib borilayotganligi, 25,3 % holatda rahbarlar bilan ishlashda muaommolarga duch kelinishi, 60% holatda moddiy yordam berish holati shaffof emasligi, 60% holatda korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishi yanada kuchaytirilsa, natijalar sezilayotganligi to'g'risida respondentlar ma'lum qilishgan.

Ushbu aniqlangan holatlar bo'yicha, tahlil natijalaridan kelib chiqib, bo'lim tomonidan olib borilayotgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda nuqsonlar mavjud yo'nalishlarda nazorat tadbirlarini hamda tushuntirish profilaktik tadbirlarni kuchaytirish choralari belgilab olindi.

Ilova: So'rovnoma natijalari, elektron tarzda
(<https://docs.google.com/forms/d/1MT6iPFprjG-4Dj8icanOscK16d18yGesmRSpP1vw-Ro/edit#responses>).